

XX ASR O'RTALARIDA O'ZBEKISTONNING JANIBIY VILOYATLARI
QISHLOQLARI AHOLISINING TURMUSH TARZI

Ashirov Adham Azimboyevich,

tarix fanlari doktori, professor.

Qurbonov Valijon Ulug'bek o'g'li,

Termiz iqtisodiyot va servis

universiteti tarix yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o'rtalarida Surxondaryo viloyati qishloqlari maishiy aholisining kundalik hayoti tarixiy va ilmiy adabiyotlarga asoslangan holda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: XX asr, Surxondaryo viloyati, tarix, o'zbeklar, Boysun, Sherobod tumani.

XXI asr o'zbek xalqi o'z tarixi va milliy an'analarini o'rganish borasida yangi zarvaraqlarni muhrlamoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz istiqbolga erishganidan keyin xalqimizning o'zligini anglashi, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analarga bo'lgan e'tiborning ortishi natijasida o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammosi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, uzoq yillar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho merosimizning, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizning qaytadan jonlanishi hamda ularning jamiyat hayotiga olib kirilishi ham etnologik tadqiqotlar dolzarbligining oshishiga sabab bo'lmoqda. [2, 10-b]

Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi yetakchi ilmiy markazlarda XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmidagi ijtimoiy jarayonlar, qishloq aholisi hayotiga ta'siri, qishloq aholisi kundalik hayotining mikro-tarixiy manzaralarini tiklash, oilaviy munosabatlar, an'anaviy mehnat shakllari, maishiy madaniyat, jamoa hayoti, ayollarning ijtimoiy faolligi va yoshlar tarbiyasiga oid tarixiy tajribalar keng qamrovda ilmiy tahlil qilinmoqda.

O'zbekistonning janubiy viloyatlari an'anaviy moddiy madaniyatining o'rganilganlik darajasini ikki davrga bo'lish mumkin. O'zbek xalqining moddiy va

ma'naviy madaniyatiga oid ishlarda ushbu mavzuning alohida yo'nalishlari bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Birinchi davr sovet davri bo'lsa, ikkinchisiga mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni kiritish mumkin. Sovet davrida asosiy ilmiy tadqiqot 1940 yillarning boshlaridan boshlab Surxondaryo viloyati etnografiyasini o'rganishga kirishildi. Xususan, 1945 yildan e'tiboran taniqli etnograf olimi B.X.Karmisheva O'zbekistonning qator tumanlari, jumladan, Janubiy Surxon vohasi aholisining etnogenezi va etnik tarixi bo'yicha tadqiqotlarini boshlagan. Ilmiy tadqiqot natijalari uning monografiyalari va ilmiy maqolalarida aks ettirilgan [3,117-b]. Ushbu ishlarda Janubiy O'zbekiston aholisining XIX – XX asrning boshlaridagi etnik tarkibi, alohida etnik guruhlarining shakllanishi, aholining mintaqa bo'ylab joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. Zikr etilgan ushbu monografiyada tadqiqot obyekti Janubiy Surxondaryoning Boysun va Sherobod vohasidagi o'zbeklar, shuningdek tojiklar, turkmanlar, arablar va boshqa xalqlar etnik tarixiga oid qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. V.V.Ginzburg qadimgi Baqtriya aholisining irqiy tuzilishi haqida ma'lumot beradi, [3,126-b] . 1958 yilda nashr etilgan K.Najimovning "Surxondaryo aholisining antropologik tarkibi" deb nomlangan asarida muallif 1950-1951- yillarda Surxondaryo viloyatida olib borgan tadqiqotlari va amaliy topilmalari asosida yozilgan.

Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida jamiyat hayotining turli jabhalarini xolisona o'rganish, tarixiy jarayonlarni qayta baholash va mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni boyitish uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. Xususan, qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, kundalik turmush sharoitlari, aholi farovonligiga ta'sir etgan tarixiy omillarni ilmiy asosda tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Zero, "Islohotlarimiz natijasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila o'z kundalik hayotida his etishi kerak" , [1, 33-b] degan tamoyil o'tmishdagi ijtimoiy jarayonlarni ham xolisona baholash, ularning ildizlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Bu davrda respublika qishloq xo'jaligida paxtaning asosiy ekin ekanligi, boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan paxta xarid narxining past darajadaliigi, qishloq aholisining moddiy ahvoriga hamda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Paxta yetishtiruvchi dehqon g'alla, kartoshka va sabzavot yetishtiruvchilardan bir necha bor og'ir mehnat qilsa-da, ish haqi ularnikidan kam edi. Lekin shunday bo'lsa-da ularning ish haqi oshib borib, 1965-yilda o'rtacha 2 so'm 68 tiyin, 1970-yilda 3 so'm 90 tiyin, 1975-yilda 4 so'm 54 tiyin, 1980-yilda 5

soʻm 51 tiyinni tashkil etdi [5, 17-b]. 1980-yillar boshlaridan qishloq xoʻjaligida mahsulot yetishtirishning yangi usuli–ijara pudrati yoʻlga qoʻyildi. Ijara pudrati oʻzining afzalligini koʻrsatdi va qishloq aholisining daromadining oshishiga xizmat qildi. U dastlab asosan sabzavotchilik, bogʻdorchilik, uzumchilik va pillachilikda qoʻllanilgan [4, 13-b].

Lekin qishloqda yashovchilarning asosiy qismini tashkil etuvchi kolxozchilar va sovxoz ishchilarining boshqa soha xodimlariga nisbatan ish haqining past darajada saqlanib qoldi. Qishloqda turar-joy fondlarining asosiy qismi kishilarning shaxsiy mablagʻlari hisobidan qurilgan. Masalan, 1987-yilda Surxondaryo oblasti qishloq hududlarida jami yashash uylarining fondi 10,3 mln. kv. metrni tashkil etgan boʻlsa, undan 8,3 mln. kv. metri yoki 80,5 foizini qishloq odamlarining shaxsiy mablagʻlari hisobidan qurilgan uy-joylar tashkil etgan

Xulosa qilib aytganda, qishloq aholisi asosiy qismining paxta yetishtirish bilan bogʻliq ishlarda mehnat qilishi, paxta yetishtirishga boʻlgan majburiy talab qishloq aholisining daromadi va turmush darajasiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Shu bilan birga, 1960-yillari oʻrtalaridan qishloq aholisiga kolxoz va sovxozlar tomonidan naqd pul hisobida ish haqining toʻlanishi, kolxozchilarga pensiya taʼminotining joriy etilishi - qishloq aholisini ijtimoiy himoyalash hamda daromadlarining oshishida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Shuningdek, 1960-1980-yillarda viloyat qishloq hududlarida koʻplab uyjoylar, madaniy-maishiy obyektlar va ijtimoiy infratuzilmalar barpo etildi. Shuningdek, paxta maydonlarini kengaytirish va yangi hududlarni oʻzlashtirish siyosati natijasida aholining koʻchirilishi, yangi posyolkalar tashkil etilishi va "xutor" xoʻjaliklarining tugatilishi koʻplab salbiy oqibatlariga olib kelgan. Shu bilan birga tadqiq etilgan yillarda qishloq hududlarining elektrlashtirilishi va gazlashtirilishi qishloq aholisi hayotida muhim voqea boʻlib, aholi kundalik maishiy turmushida katta ijobiy oʻzgarishlarga olib keldi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. –Б. 33.
2. A.Ashirov. Ethnology. Textbook. Tashkent. "New edition". 2014.
3. Doniyorov.A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. – T.: NIF MSH. – 2020. B. 117.

4. Akbarov J. Jo‘rayev A. Raxmatullayev M. Qishloq aholisi turmush darajasini ko‘tarish. –Toshkent: O‘zbekiston, 1988. –V.13.
5. Barakayev X. Rivojlangan sotsializm sharoitida qishloq aholisi ehtiyojlarini qondirish. –Toshkent: O‘zbekiston. 1982. – B.33.